

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA UNDALMA CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Umarxonova Yulduzxon G'ayratjon qizi

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Arabshunoslik Oliy maktabi

Arab-ingliz filologiyasi 2-kurs 2-guruh talabasi

yulduzxonumarxonova12@gmail.com

91. 692-53-52

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17173186>

Annotatsiya: ushbu maqola o'zbek va arab tillarida undalma tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ular o'zaro qiyoslanadi, o'xshash va farqli jihatlari izohlanib, bir necha misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: undalma, so'zlovchi, tinglovchi, undov belgisi, vergul, yuklamalar, egalik qo'shimchalari.

Аннотация: данная статья посвящена анализу обращения в узбекском и арабском языках. В ней проводится сравнительный анализ, разъясняются сходства и различия, а также рассматриваются примеры для более глубокого понимания темы.

Ключевые слова: обращение, говорящий, слушающий, восклицательный знак, запятая, частицы, притяжательные аффиксы.

Annotation: this article is dedicated to the analysis of vocatives in Uzbek and Arabic languages. It provides a comparative study, explains their similarities and differences, and analyzes several examples for a deeper understanding of the topic.

Keywords: vocative, speaker, listener, exclamation mark, comma, particles, possessive suffixes.

Bilamizki, nutq qiluvchi o'z nutqining aynan kimga va nimaga tegishli ekanligini ma'lum qilish uchun nutq hosil bo'layotgan paytda ularga nisbatan undalma, ya'ni xitob qiladi va bu fanda "undalma" termini ostida o'rganiladi. Demak, gapdan anglashilgan ma'no tegishli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiruvchi so'zga undalma deyilar ekan. Undalmalar tilshunoslikda alohida gap bo'lagi deb qaralmaydi, chunki u gapdagi boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydi. Arab va ingliz tillarida ushbu birlikning qo'llanilishi o'ziga xos qonun-qoidalar asosida yuzaga keladi va quyida ular bilan tanishtiriladi.

Arab tilida undalmaning o'rni ixtiyoriy, ya'ni u gapning istalgan uch o'rni: boshi, o'rtasi va oxirida kelishi mumkin va arab tilida undalmalar uchun o'z navbatida **"oltin qoida"** mavjud, unga ko'ra undalmalar hech qachon undalmalikni bildiruvchi yuklamalarsiz qo'llanilmaydi.¹ Ushbu yuklamalar esa quyidagilardir:

1. يا yuklamasi. Bu yuklama ishlatilganida undalma ال artiklisiz va tanvinsiz bosh kelishikda qo'llaniladi. Masalan,

يا طالب – Ey, student

يا محمد – Ey, Muhammad

يا إخوان – Hoy, birodarlar

يا نسوان – Ey, ayollar

2. Agar undalma izofa shaklida bo'lsa, izofaning muzof qismi tushum kelishigida keladi. Masalan,

يا حبيب القلب – Ey, ko'ngilning sevgani

1. ¹ Баранов Х. Арабско-русский словарь. –М., 1985.

يا عالم الأسرار – Ey, sirlardan xabardor

يا ربنا – Ey, robbimiz

يا عبد الله – Ey, Allohning quli²

3. Undalma muzakkar jinsda bo'lsa, أَيُّهَا, muannas jinsda bo'lsa, أَيُّهَا yuklamalari ishlatiladi, bunda undalmalarning soni hisobga olinmaydi va ال artikli bilan keladi. Masalan,

أَيُّهَا الرجل – Ey, odam

أَيُّهَا الرجال – Ey, odamlar

أَيُّهَا الطالبة – Ey, toliba

أَيُّهَا الطالبات – Ey, tolibalar

4. Ba'zan أَيُّهَا va أَيُّهَا yuklamalari avvalidan يا yuklamasi ham qo'shib, birgalikda qo'llanilishi mumkin. Masalan,

يا أَيُّهَا النفس – Ey, jon

يا أَيُّهَا المؤمنون – Ey, mo'minlar

5. Notanish shaxsga murojaat qilinganida, يا yuklamasi ishlatiladi va undalma noaniq holatda, tushum kelishigida keladi. Masalan,

يا طالباً – Hoy, student

يا رجلاً – Hoy, odam

6. الله so'ziga nisbatan bu yuklamalar ishlatilamaydi, balki alohida so'z shaklida xizmatga keladi:

اللهم³ – الله

“Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi. Juda muhim. Undalmalar nutq jarayoniga undalgan, diqqati jalb qilingan shaxs-predmetlar bo'lganligi uchun bosh kelishikda turadi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilinishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farq qiladi” – deydi o'zbek tili professor ustoz Nargiza Erkaboyeva. Darhaqiqat, undalmalar ham o'zbek tilida ega singari bosh kelishikda qo'llangani bilan, u gap bo'lagi hisoblanmaydi, negaki ega grammatik jihatdan gapda kesim bilan bog'lanadi, undamlamalar bo'lsa grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi. Undalmali gaplarning kesimi ko'p hollarda I va II shaxs-son shakllarida bo'ladi. Undalma alohida ohang bilan ajratib aytiladi. Ular gapning boshqa bo'laklari bilan aloqaga kirishmaganligi bois ham o'rni gapda erkin bo'ladi, ya'ni gapning istalgan o'rnida kelish huquqiga ega, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko'ra alohida-alohida vazifa bajaradi.

➤ Undalmalar gap boshida kelsa chaqiriq, murojaatni bildiradi:

Anvarjon, tezda o'rningdan tur-da, darslaringni tayyorla.

Bobojon, menga avvalgidek qiziq hikoyalaringizni aytib bering.

➤ Undalmalar gap oxirida kelsa, mehr va hurmatni ifodalaydi:

Doim epchil va chaqqon bo'lg'in, jonim singlim.

Bu hayotda “ertaga” deb olib qo'ygan ishingning manzili “hech qachon” degan yo'lga olib boradi, aylanay, o'g'lim.

So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb etishni maqsad qilib olsa, undalma **gap boshida** keladi.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,

2. الشدياق، أنطوان. معجم قواعد العربية العالمية: عربي - إنكليزي. إعداد الياس كنعان، تدقيق جورج هنري². عبد المسيح، مراجعة إنكليزية ش. ج. مكرموت، مكتبة لبنان، بدون تاريخ.

3. ³ N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”.:T- 1997.

Bulbul kuyin she'rga solaman.

So'zlovchi tinglovchilarga murojaat qilish orqali unga obyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, undalma **gap o'rtasi** va **gap oxirida** ishlatiladi. Masalan,

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,

Nechun kerak senga, rubob, shuncha g'am?!

Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo –

Sen beshik emassan, dorsan, tabiat.

Undalmalar, ba'zan, **jonivor yoki jonsiz narsalarga** ham qaratiladi:

Qarg'avoy, men seni yeyman.

Seni unutilmas yuragim, aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!

Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatikmaloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo'laklaridan **vergul (,)** bilan ajratiladi. Bu quyidagi tartibda qo'yiladi:

- Undalma gap boshida kelsa, undan so'ng: *Bolalar, o'zaro mehr-oqibatli bo'linglar.*
- Undalma gap o'rtasida kelsa, ikki tomondan: *Doim hushyor bo'ling, ey ahli ilm, zero hushyorlik ogohlik belgisidir.*
- Undalma gap oxirida kelsa, undan oldin: *Yana bir bor sochim mayda o'ring, ota.*

Undalma gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalmadan so'ng **undov belgisi (!)** qo'yilishi ham mumkin. Masalan,

Odamlar! Eshitmadim demanglar.

Undalmalar o'z navbatida uyushib ham kelishi mumkin: *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, singillar, sizga shu haqida murojaat qilamiz.*

O'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi mavjud bo'lgan undalmalar **yoyiq undalmalar** deyiladi:

Muhtaram Umidaxon, tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman.

Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening yutug'ing mening yutug'imdir.

Vatanimiz muvaffaqiyatini ko'rolmaydigan quzg'unlar, ayting, O'zbekistonning taraqqiyotiga kim g'ov bo'la oladi?

O'zbek tilida so'zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini nutqqa qaratish uchun uning nomini aytib yoki opa, aka, singil, tog'a, amma, xola kabi so'zlar orqali murojaat qilinadi. Ba'zan tinglovchiga murojaat ifodalovchi so'zni qo'llash orqali unga shaxsiy munosabatini ham ifodalaydi. Masalan,

Arpangizni xom o'ribmanmi, uka.

Onajonim, balki bir kun to'y aytganingizdek bo'lar.⁴

Agar undalma alohida ohang bilan ajratib aytilsa, undalmadan so'ng vergul emas, **undov belgisi (!)** qo'yiladi:

Aziz vatandoshlar! Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko'zlab yashaganlar.

Zafar! Oyim keldilar.

Undalmalar tinglovchining diqqatini kuchliroq jalb etish, emotsionallikni ta'minlash, hayron qolish ma'nosini ifodalash uchun ko'pincha **eh, voh, voy** kabi undovlar bilan birgalikda keladi. Bunda undovlar aksar hollarda undalma oldidan qo'llaniladi:

Hoy o'rtoqjon, quloq soling so'zimga.

⁴ O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.- T.: "LESSON PRESS", 2017.

Ba'zan undalmadan so'ng **ey, ho, ov, -u (-yu)** kabi undovlar ham ishlatiladi:

- ✓ *Karimjon-u (ov, ey, ho), bu yoqqa keling.* (Bu vaqtda undalma orqali ifodalangan shaxs yoki predmet so'zlovchidan uzoq masofada ekani ifodalanadi.

Undalmalar oldidan undov so'zlar ishlatilganda yozuvda undalma bilan undov so'zlar orasiga hech qanday tinish belgi qo'yilmaydi. Undov so'zlar undalmadan so'ng kelganda esa undov bilan undalma **chiziqcha (-)** bilan ajratib yoziladi.

Undalmalar o'zbek tilida ko'pincha I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini olib keladi. Bunday vaqtda undalma vazifasida kelayotgan tinglovchi so'zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma'nolarini bildiradi:

Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.

Ayrim hollarda undalma nutqda tushib qolib, uning o'rnida undovlar qo'llaniladi. Masalan,

Hoylar, bu yoqqa kelinglar.

Hoy, chilim keltir. (Undalma o'rnida **hoy** ishlatish tinglovchiga hurmatsizlik, mensimaslik ma'nosini ifodalaydi.)

O'zbek tilidagi yana bir o'ziga xos xususiyat shundaki, er-xotin bir-biriga murojaat qilganda III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi bilan kelgan undalmadan foydalaniladi. Masalan,

Oyisi, keling.

Dadajonisi, choy iching.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qisqa izlanishlar davomida har ikki tildagi undalmaning o'ziga xos va umumiy xususiyatlari atroflicha yoritildi, tahlil qilindi. Arab va o'zbek tillaridagi undalma vazifasi jihatidan bir-biriga to'laonli mutanosib kelsa-da, bir-biridan tuzilishi, ma'no nozikliklari bilan o'zaro farq qilar ekan va bu farqlarni yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni solishtirgan holda anglash esa hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, deb umid qilinadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Баранов Х. Арабско-русский словарь. –М., 1985.
2. N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T-1997.
3. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.- T.: "LESSON PRESS", 2017.
4. مراجعة، المسيح عبد هنري جورج تدقيق، كنعان الياس إعداد. إنكليزي - عربي: العالمية العربية قواعد معجم. أنطوان، الشدياق. تاريخ بدون، لبنان مكتبة، مكرم موت. ج. ش إنكليزية.